

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z TARKIBINI O'RGANISHDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883899>

Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna

UrDU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti, f.f.n

Baxtiyorova Mahliyo

*UrDU Ta'lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi 2-kurs magistri*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda so'z tarkibini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish masalasi ko'rsatiladi. So'z tarkibini klaster usulida o'rganishga doir topshiriqlar tizimi keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, ona tili, so'z tarkibi, interfaol metod, "Qora quti", "Omadli eshiklar", Klaster, dars samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье показан вопрос использования интерактивных методов в изучении состава словы в младших классах. Представлена система заданий на изучение структуры слова в кластерном методе.*

Ключевые слова: *начальное образование, родной язык, состав слов, интерактивный метод, «Черный ящик», «Счастливые двери», кластер, эффективность урока.*

Abstract. *This article shows the issue of using interactive methods in learning vocabulary in elementary grades. A system of tasks for learning the word structure in the cluster method is presented.*

Key words: *Primary education, mother tongue, word composition, interactive method, "Black box", "Lucky doors", Cluster, lesson efficiency.*

Yurtimizdagi ta'lim jarayoni jamiyat hayotining ustuvor yo'nalishi bo'lib, u yosh avlodni shakllantirish va muntazam rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muhim vazifalarga yo'naltirilgandir. Bugungi kunda ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan talablardan biri yetuk shaxs, ijtimoiy bilimdonlik darajasiga ega bo'lgan yoshlarni tayyorlashdan iborat. Ushbu yoshlar istiqbolda malakali mutaxassis bo'lishi, jamiyatda o'ziga munosib o'rin topishi uchun, birinchi navbatda, munosib hayot tayyorgarligi, bilim va ma'naviyatga ega bo'lishlari talab etiladi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik va qo'llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy xususiyatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart –

sharoitlarning mavjudligi, o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida ijobiy, samimiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Boshlang'ich ta'limdagi ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilishi faoliyatini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash o'z fikrlarni og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'lish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning markazida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko'nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Bolalar til materiallarini tahlil qilishga, asosylarni ajratishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir xil ko'rinishdagi darslar zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun dars davomida turli ish turlarini qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

So'z tarkibiga doir ma'lumotlar bilan o'quvchilar 1-sinf dan boshlab, soddadan murakkabga tamoyili asosida tanishib boradilar. 3-4-sinflarda esa bu mavzu yuzasidan keng bilimlar beriladi.

4-sinfda so'z tarkibini o'rganishda "Qora quti" metodini qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilar juft bo'lib ishlaydilar. Har bir juftlikka "So'z tarkibi, o'zak, o'zakdosh so'zlar, qo'shimchalarning mohiyatini yorituvchi tayanch so'zlar, raqamlar, belgilarni kartochkalarga qayd eting" topshirig'i berildi. Ular turli grammatik belgilar, sxemalar, raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlaydilar. O'quvchilar hamkorlikda quyidagilarni bajarishlari mumkin. Bulardan namunalar keltiramiz:

1- kartochka.

Chiziqalar o'rniga mos so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'yib, yangi so'z yasang. Yasagan so'zingizga gap tuzing. Kartochkada chiziqalar beriladi.

2- kartochka.

O'zak va yasovchi qo'shimcha so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarga mos so'z toping. Uning turkumini aniqlang.

3- kartochka.

Berilgan tayanch so'zlar yordamida rasmdan foydalanib "Ikki do'st" mavzusida hikoya tuzing.

4- kartochka.

2, 2023, 4, 7, 8, 11-raqamlarini harfiy ifodalar bilan yozib, o'zingizning hayotingiz bilan bog'liq matn tuzing va yozing.

5- kartochka.

To'lqinli chiziq, bitta to'g'ri chiziq, ikki to'g'ri chiziq belgilar bo'yicha gap tuzing.

So'z tarkubini o'rganishda "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha" metodidan ham foydalanish mumkin. Buni o'qituvchi "Ortiqchasini ajrat"

degan topshiriq bilan murojaat qiladi. O'quvchilarga bir xil turdagi qo'shimchalar ichiga boshqa xil qo'shimcha aralashtirib beriladi.

O'quvchilar ular ichidan boshqa turdagi qo'shimchani ajratib olishadi va nima uchun ajratib olish sababini izohlab berishadi. Beriladigan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

So'z yasovchi qo'shimchalar ichidan ortiqchasini ajrat.

-li, -dosh, -zor, -ni, -lik, - paz.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar ichidan ortiqchasi ajrat.

-ni, -ga, -da, -lik, -ning

O'zakdosh so'zlar ichidan ortiqchasini ajrat

Boshla, boshsiz, bebosh, boshli.

Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishda "Omadli eshiklar" o'yin metodini ham qo'llash mumkin.

"Omadli eshiklar" o'yini. Vatmanga uchta eshik chiziladi. Sinf o'quvchilari guruhga bo'linadi. 1-eshikka 2 ta savol, 2-eshikda 3 ta savol, 3-eshikda 4 ta savol bo'ladi.

Eshik uchun savollar.

1. O'zakdosh so'zlarni so'zlarni toping.

Bebaho, bahosiz, begona, bebosh, bedavo.

1. Tarkibida yasovchi qo'shimcha mavjud so'zlarni toping.


Gulla, go'zallik, bebaho, tezla, qishloq, maktab.

Savollarga to'g'ri javob bergan guruh 2-eshikka yuzlanadi.

Shundan keyin 2-eshik uchun savollar beriladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida faqat so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning o'qitilishiga doir ma'lumotlar beriladi. Jumladan, 4-sinf "Ona tili" darsligida quyidagicha: So'zlarning – chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz qismlari so'z yasovchi qo'shimchalardir. Ular o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq bo'lgan boshqa bir so'zni hosil qiladilar. Bular yasama so'zlar deyiladi.

Yasama so'zlarning o'zak va yasovchi qo'shimchalari shunday belgilanadi:


Tunukachi, sozla, g'allakor, tuzsiz.


- ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi.

So'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydi. Namuna: *ishga, maktabdan, qalamni*.

Qo'shimchalarni o'qitishga doir darslikda turli xil mashqlar berilgan. O'qituvchi bu mashqlar bilan chegaralanib qolmay, turli o'yin-topshiriqlardan, test, rebus, jadval va boshqotirmalardan foydalanishi mumkin. Bu kabi usullar o'quvchilar bilimni mustahkamlashga, aqlini charxlashga xizmat qiladi.

Ta'lim amaliyotida keng qo'llaniladigan klaster va unga yaqin bo'lgan usullarni qo'shimchalarni o'qitishda qo'llashni ko'rsatib o'tamiz:

Klaster usulida savolning javobi aniqlanadi. 1. **Savol:** -chi qo'shimchasi qaysi so'zlarga qo'shiladi?




O'quvchilar yozganlari haqida ma'lumot beradilar. Javob: jar, bo`z, lof so'zlariga qo'shiladi.

2. **Savol:** Qo'shimchalarning turini raqamlar bilan joylashtiring.

1- kor	2 - dosh	3 - ga	4 - siz	5 - la
6 -ning	7 - dor	8 - li	9 - dan	10 - zor
11 - illa	12 - da	13 - loq	14 - chi	15 - ni

Javob: ot yasovchi qo'shimchalar: 1, 2, 10, 13, 14. Sifat yasovchi qo'shimchalar: 4, 7, 8. Fe'l yasovchi qo'shimchalar: 5, 11. So'z o'rgartiruvchi qo'shimchalar: 3, 6, 9, 12, 15.

3. **Savol:** Qaysi qo'shimchalar qo'shilishi mumkin?




Javob: - chi, -ni, -la qo'shimchalari qo'shiladi.

4. **Savol:** Noto'g'rini ko'rsating.




Javob: Son va olmosh yasovchi qo'shimchalar bo'lmaydi.

5. **Savol:** ? o'rniga qaysi so'zlarni qo'yish mumkin?



1. So'z. 2. Bor. 3. Ko'z. 4. Kel. 5. Sof. 6. Toza. 7. Tur.

6. Savol: Tushuntiring.



Javob: Barcha qo'shimchalar **suv** so'ziga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi. Suvli, suvsiz – sifat, suvchi – ot, suvla- fe'l. Bular o'zakdosh so'zlar.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi savol va topshiriqlar o'quvchilarning so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi hamda dars jarayonini qiziqarli tashkil qilishga xizmat qiladi. Albatta, bunday metodlardan foydalanishda mavzularning xususiyatlari, dars turlari, sinf sharoiti hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.
2. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik.- "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
3. Umarova H. Qiziqarli grammatika. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.